

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-51409-3.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**PEDAGOGIKA
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar
tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi
5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Primov M.,
k.o'q. Avalova G.

Taqrizchilar: prof. Quronov M.,
dots. Babashev F.

"Pedagogika" fani bo'yicha ushbu namunaviy dasturda pedagogikaning ta'lim-tarbiyadagi, hayot jarayonining barcha sohalaridagi dolzarb mavzulari qamrab olingan, ayniqsa barkamol inson tarbiyasidagi katta imkoniyatlarga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yangi ta'lim kontseptsiyasida va kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustivor yo'nalishi deb belgilangan.

Dasturda ta'lim-tarbiya jarayoni qonuniyatlari, zamonaviy o'qitish usullari, rivojlangan ta'lim tizimlari va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

В этой программе по предмету "Педагогика" определено основное направление педагогики в воспитании, образовании, во всех сферах жизни, освещены актуальные вопросы формирования и воспитания совершенной личности.

Исходя из этого по новой концепции образования и национальной программе по подготовке кадров образование считается приоритетным направлением в социально-экономическом развитии.

В программе раскрыты принципы воспитания, современные усулы образования, особенности развития системы образования Республики Узбекистан.

In this programme of subject "Pedagogics" defined main direction of pedagogics in upbringing, education, in all sphere of the life, be lighted lifes problem of training and education of ripeness person.

According of this by the new conseption of education and national programme preraration of basic personnels. And their education consider main direction in developing social and economy.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Iqtisodiyot sohasidagi oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida iqtisodchi-bakalavrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan fanlardan biri pedagogika fanidir. Chunki iqtisodiyot sohasida xizmat qiluvchi har bir mutaxassis yuksak pedagogik salohiyatga, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayoni to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lmog'i lozim.

"Pedagogika" fanida ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, qonunlari, tamoyil va uslublari hamda barkamol avlodni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha nazariy va amaliy omillar o'rganiladi.

Fanni o'rganishning asosiy maqsadi bakalavrlarga pedagogika nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilimlar berish, moliya sohasida band bo'lgan kadrlarda tarbiya jarayoniga doir ta'lim-tarbiya ko'nikmalarni shakllantirish hamda ularda pedagogik madaniyatni takomillashtirishdan iboratdir.

"Pedagogika" fani bo'yicha ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazishda qisqa va uzoq muddatli maqsadga muvofiq ta'lim va tarbiya uslublari kataloglaridan foydalanish, asosiy kategoriyalar, tushunchalarning qilish, differentsiallashtirilgan baho uslubiyati, ko'p sonli va kam sonli test variantlaridan foydalanish hamda audio, video vaziyatli holatlar majmualaridan foydalanish nazarda tutiladi.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarga talablar

Iqtisodchi-bakalavrlar quyidagilar haqida tasavvurga ega bo'lishlari kerak:

- pedagogikaning xususiyati;
- pedagogikaning jahon tajribasi;
- pedagogika rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari;
- pedagogik qarashlar, jahon va Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlariga haqida;
- milliy pedagogika tarixi;
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uning asosiy qonunlari.

Quyidagilarni bilishi va ulardan foydalanishi lozim:

- ta'lim-tamoyillarini va ularning amaliy ko'rsatilishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida iqtisodchi-talabalarni faollashtirish.

Quyidagi tajribaga ega bo'lishi kerak:

- mashg'ulotlarda o'quv materiallarini o'zlashtirish rejasi va mashg'ulotning reja konspektlarini turli-xil shakllarda tuzilishi;
- zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida ta'limni, bilim olishni tashkil qilish va qo'llashni;
- talabalar mustaqil ishini va mustaqil ta'limini ilmiy-uslubiy tashkil qila olish.

Seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdori

Iqtisodchi-bakalavrlar "Pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonidagi amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlarni bahs-munozara shaklida olib borish, mavzular bo'yicha test variantlarini tuzish, berilgan adabiyotlardan foydalangan holda amaliy mashg'ulot savollariga javoblar, referatlar yozish ko'zda tutiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida berilgan mavzular bo'yicha turli ko'rgazmali materiallar tayyorlash, mavzularni yoritishda yangi pedagogik usullardan foydalanish yo'llari, ilmiy-ijodiy yondoshilgan mustaqil ishlar muhokamasini bajarish ko'zda tutiladi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Namunaviy o'quv rejasida mazkur kursga 162 soat ajratilgan. Ularning 54 soati ma'ruza, 36 soati seminar mashg'ulotlaridan, 18 soati laboratoriya ishi, 54 soati mustaqil ta'limdan iborat. Mazkur kursni o'zlashtirish natijasida bakalavrlar pedagogika sohasiga doir bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bakalavrlar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Pedagogika" fanidan bakalavrlar bilimni nazorat qilish to'rt marta JB, to'rt marta OB, ikki marta YaB shaklida o'tkaziladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Pedagogika" fanini o'qitishda albomlar, kompyuterlar, audio va video uskunalar, proektorlar va slaydlardan foydalanish talab etiladi.

O'quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

"Kasb ta'limi" yo'nalishlarida "Pedagogika" fani namunaviy o'quv rejasi bo'yicha 5-6-semestrda o'qitiladi.

2. FAN DASTURI

"Pedagogika" fanining predmeti, mazmuni va uni o'rganish usullari

"Pedagogika" fanining paydo bo'lishi. Pedagogika-ta'lim-tarbiya haqidagi fan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida pedagogikaning o'rni va rolining ortib borishi. O'zbekistonda erkin demokratik, fuqarolik jamiyatni shakllantirish jarayonida pedagogika fanining ahamiyati.

Pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va ularga nisbatan bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi. Pedagogikaning ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funktsiyalari. Yosh avlod tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda pedagogikaning ahamiyati.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini-o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish.

Ta'lim-bilim, ko'nikma, malaka, dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish ekanligi.

Inson kamoloti-tarbiya mahsulidir.

Ma'lumot-ta'lim-tarbiya in'ikosidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash sharoitida pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati, ularning vazifasi, yo'nalishlari, turlari: asosiy, nazariy, amaliy.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari tavsifi va turlari. Nazariy tadqiqot uslublari: qiyosiy, tarixiy tahlil qilish, va loyihalashtirish, empirik usullari, ilmiy pedagogik kuzatish va uning turlari.

Milliy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida pedagogika fani rivojlanishining asosiy vazifalari va tendentsiyalari.

"Milliy pedagogika" tushunchasining ta'rifi, mohiyati, asoslari.

Pedagogika fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorliklar va turkiy xalqlar axloq-odob tizimining o'ziga xos an'anaviy xususiyatlari.

Islom ma'rifiy tsivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Hadis ilmi rivojida Imom Ismoil-al Buxoriy va Imom-at-Termiziyning xizmatlari. So'fiylik ta'limotida etuk komil inson muammosining talqin etilishi.

Sharq Uyg'onish davrida maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Buyuk mutafakkirlar ta'lim-tarbiya haqida.

Temur va temuriylar davrida tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari va matbuot. Jadidchilik ma'rifati va ta'lim-tarbiya.

"Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida"gi ta'lim-tarbiya yo'nalishlari va undagi kamchiliklar.

Mustaqil O'zbekistonda milliy ta'limni tashkil etish muammolari.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar. Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya. Konfutsiy.

G'arbiy Evropada maktab, maorif hamda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Jahon pedagogika fani rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik faoliyati va pedagogik qarashlari.

Ta'lim jarayonining mohiyati va ta'lim nazariyasi

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligi, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, maqsadlari, vazifalari, uslublari.

Ta'lim-bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi. Mustaqillikni mustahkamlash-ta'limning mohiyat-mazmuni ekanligi.

Ta'lim mazmunini boyitish yo'llari: yangi o'quv-pedagogik texnologiyalar, yangi pedagogik kontsepsiyalar, yangi pedagogik testlar. O'quv rejaları, dasturlari va darsliklarni muntazam takomillashtirish va ulardagi muqobillik holatini ko'paytirib borish.

Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari

Ta'lim qonuniyatlari: ta'limning jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, ta'limda ma'lumot berish.

Ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi omillar. Ta'lim olish va ta'limning mazmuni o'rtasidagi dialektik bog'liqlik. Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyatlari.

Ta'lim qoidalari haqida tushuncha. Ta'limning ilmiyligi. Ta'limda uzviylik va izchillik. Ta'limning tushunarliqligi, hayot bilan bog'liqligi. Ta'limda onglilik va faollik. Ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan foydalanish. Ta'limning ko'rsatmaliligi. *Ta'limni va ta'lim tizimini demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish.* Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

O'qitish usullari va muammoli ta'lim

O'qitish usullari va usullari to'g'risida tushuncha.

O'qitish usullarini amalga oshirish uchun qo'yiladigan muayyan talablar.

Usullari tarkibiga O'qitish usullarining turlari.

O'qitish usullarining tasnifi. O'qitishning og'zaki usuli. O'rganilgan materiallar ustida ishlash va yangi materiallarni o'rganishga tayyorlanish. O'qitishning induktiv va detektiv usullari. *O'qitishning amaliy usullari.*

Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha va ularning qisqacha tarixiy sharhi. Frontal, guruh va yakka tartibda o'qitish. O'qitish tizimlari. Darsni tashkil etishning maqsadi, mazmuni, dars samaradorligini oshirish yo'llari. Ma'ruza, suhbat, praktikum, seminar, fakultativ, konferentsiya, mustaqil ta'lim, mustaqil ish va ta'lim jarayonida ulardan foydalanishning ahamiyati.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari, o'qitishni tahlil etish, barcha shakllarining birligi va o'zaro aloqadorligi.

O'qitish usuli, usullari va vositalari. O'qitish usullarini amalga oshirish shakllarining xilma-xilligi. O'qitish usullarining tasnifi va ularning tahlili. Ta'limni rag'batlantirish usuli. Mustaqil ishning rolini kuchaytirish, mustaqil ishlar turlari va o'qitish vositalari. O'qitishning nazariy va o'z-o'zini nazorat mezonlari. *Turli o'quv shakllarida o'qitish mezonlarini takomillashtirish.* Har xil tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish usullarini ta'minlash xususiyatlari.

Ta'lim-tarbiya sifatini intensivlash va optimallashtirish asosida tashkil etish

Pedagogik jarayonni ilmiy tashkil qilishga qo'yiladigan talablar. Mutafakkirlar tarbiya ishiga ijodiy yondoshuv haqida. Ta'lim-tarbiya jarayonini intensivlashning mohiyati. Yoshlarni o'qishga, mustaqil bilim olishga, o'zini o'zi tarbiyalashga o'rgatish.

Optimallashtirish tushunchasi. Optimallashtirishning nazariy, pedagogik asoslari. Pedagogik jarayonlarni optimallashtirish.

O'zbek halq milliy maktabi muammolari, istiqbollari.

O'zbek halq pedagogikasi. Oliy o'quv yurtlarining pedagogik vazifalari. *Oliy o'quv yurtlarining tiplari va strukturasi.* Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shartlari va asosiy shakllari. Talabalar bilimni tekshirish va baholash shakllari hamda usullari: test, reyting. Iqtisod va moliya fakultetlarining o'ziga xosligi. Amaliyotlar.

G'arb pedagogikasi va pedagogik mahorat

G'arb pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari. G'arb pedagogikasida individualizm, individuallik va bixeviorizm ta'limoti. Pedagogik mahoratda shaxs. Shaxsiy manfaat va shaxsiy javobgarlik muammosi. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya to'g'risida *G'arbiy Evropa va Amerika* pedagoglari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari

Tarbiya. Tarbiya jarayonining ta'rifi. Tarbiyaning psixologik asoslari. O'zini o'zi tarbiyalash, qayta tarbiyalash. Tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ish. Oila, maktab va turli muassasalardagi umumiy va maxsus tarbiya. Ta'lim bilan tarbiya jarayonining bir butunligi. Tarbiyaning ta'lim jarayonida farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari. *Tarbiya predmeti sifatida munosabatlarning mohiyati*. Munosabatlarni shakllantirish sharoitida tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga amal qilish.

Tarbiyaning umumiy usullari va qoidalari

Tarbiya usuli haqida tushuncha. Tarbiya vositalari. Tarbiya vositalari va usullarining o'zaro munosabatlari. Tarbiya usullarining tasnifiga turlicha yondoshish. Ishontirish tarbiyaning muhim usuli ekanligi. Ijobiy namuna usuli va uning turlari. Tarbiyada mashq usuli. Rag'batlantirish va ilhomlantirish usullari haqida. Tarbiya usullarini optimal tanlash va samarali qo'llash shartlari. *Tarbiya usullarini takomillashtirish*.

Shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari

Shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari: axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy, iqtisodiy, mehnat tarbiyalari. Aqliy tarbiya, aqliy rivojlantirish va dunyoqarash tushunchalari. Axloqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining usulologik asoslari. Ongli intizom, burch, ma'suliyatni tarbiyalash. Shaxsni tarbiyalashda mehnat tarbiyasining roli. Mehnat ta'limining vazifalari, mehnatga muhabbat, mehnat ahliga hurmatni singdirish. Mehnat jarayonida mehnat ko'nikmalari va madaniyatini shakllantirish, kasb tanlash va kasbni ongli tanlashga undash. Iqtisodiy tarbiya va uning yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli. Iqtisodiy tarbiya shakllari va usullari.

Shaxsning rivojlanishi va uning shakllanishida jamoaning tarbiyaviy roli. Jamoa tarbiyasi haqida mutaffakirlarning fikrlari. Jamoa tarbiyasi haqida tushuncha. Jamoaning belgilari va funktsiyalari. Yoshlar jamoasining tarkibi. Turli jamoalar va ularning o'zaro aloqadorligi. Jamoa shakllari, jamoani tashkil qilish va tarbiya vositalarining uslubiy asoslari. Yoshlar faollarini tarbiyalash jamoaning harakat qonuni. Jamoada sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish. Yoshlar jamoasini shakllantirish va tanlashda pedagogik jamoaning rahbarlik roli.

Shaxsni rivojlantirish. "Shaxs", "Rivojlanish", "Shakllanish" tushunchalarining mazmuni. Taraqqiyparvar mutafakkirlar shaxsning rivojlanishi to'g'risida.

Shaxsni rivojlantirishni xarakatlantiruvchi kuchlar. Qonuniyatlar. *Shaxs rivojlanishida faoliyat va muloqotning roli*. Shaxsni tarkib toptirish tushunchasi. Shaxsning rivojlanishida biorganik ijtimoiy omillarning roli. Shaxsning shakllanishida

tarbiyaning hal qiluvchi roli. Shaxsning rivojlanishida uning o'z mustaqil faoliyatining roli. Shaxsning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning ustuvorligi.

Ta'limda zamonaviy texnikalardan foydalanish

Kompyuterlarning o'quv jarayoniga kirib kelishi. EHM asosida ta'lim berishning, texnik vositalarini qo'llashning nazariy va amaliy asoslari. Intellektual ta'lim berish tizimlari. *Ta'lim berish funksiyalarini kompyuterga yuklagan holda amalga oshirish.*

Pedagog shaxsi va uning ijtimoiy tabiati

Pedagog-ta'lim jarayonning sub'ekti ekanligi. Pedagogning nazariy ilmiy tayyorlanganligi-uning faoliyatidagi muhim zamin ekanligi. Pedagogning tarbiyaviy faoliyatiga qadar tarbiyalangan shaxs bo'lishligi omili. *Ijodkor pedagog o'ziga o'zi tanqidiy qarovchi va tanqidiylikka ko'ra yangilikni qabul qiluvchi va ommalashtiruvchi shaxs sifatida.*

O'qitish qonuniyatlari va tamoyillari

O'qitish, ta'lim-tarbiya va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqasi. O'qitish va ta'lim birligi. O'qitish vazifasi, mazmuni, usul va shakllarining o'zaro bog'liqligi.

O'qitishda ta'lim-tarbiya vazifalarining aloqadorligi.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning usul va vositalari

Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish usullari haqida. O'qitish usullarining vazifalari. Oliy maktabdagi o'qitish usullarini takomillashtirish. Oliy o'quv yurtidagi o'qitishning vositalari haqida. O'qitishning vositalari, (darslik va o'quv qo'llanmalari, o'qitishning texnik vositalari kompyuter, audio, video sistemalar) dan unumli foydalanish. *Muammoli vaziyatlarni yaratish.*

Ta'lim-tarbiyada ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash

Ilg'or pedagoglar tajribasini stenogramma qilish, sharhlash va qiyoslash. Mamlakatda asosiy ilg'or pedagogik maktablarni va yo'nalishlarni aniqlash. Ilg'or pedagogik tajribalarni modellashtirish. Ilg'or pedagogik akademiyaning tashkil qilish va uning materiallarini to'plash. *Pedagogik jarayonga yangi texnologiyalarni olib kirish.* Pedagog mahorat dasturlarini zamonaviylashtirish va unda talabalarning o'rni.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uning asosiy qonunlari

Ta'lim tizimi. O'zbekistonda ta'lim tizimining tashkil topishi. Ta'lim tizimini isloh qilish. Ta'lim tizimining bosqichlari. O'zbekiston ta'lim tizimiga tasnif. Ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya muassasalariga tasnif. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Kadrlar

tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'nalishlari. Dastur va uning tarmoqlari. *Ta'lim tizimi qurilishining qoidalari.*

Ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-ruhiy holatni sog'lomlashtirishning tarbiyaviy omili

Ishlab chiqarishdagi ahloqiy-ruhiy holat tushunchasi. Ahloqiy-ruhiy holatda adaptatsiya, kommunikatsiya, identifikatsiya, integratsiya. Sababiyat va ahloqiy-ruhiy holat. *Turli ahloqiy-ruhiy holatlarda mutaxassis o'zini o'zi boshqaruvining yo'l-yo'riqlari.*

Mutaxassis xulqida axloqiylik va qonuniylik

Mutaxassis axloqiy va huquqiy ongining o'zaro aloqadorligi hamda ta'siri. Tadbirkorlik va tijorat faoliyati qoidalari. Bozor munosabatlarining xuquqiy normalari, jamiyat axloqiy qadriyatlari va ularning nisbati. Ijtimoiy himoyalanganlikning axloqiy mezonlari. Mutaxassis faoliyatida xuquqiy normalarning axloqiy mohiyati. *Huquqiy munosabatlarning demokratlashishi va mutaxassisning axloqiy javobgarligi.*

Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish haqida. Yoshlarda ilmiy dunyoqarashga qo'yiladigan talablar. Ilmiy dunyoqarashning mohiyati va uning eng muhim tarkibiy qismlari.

Qarashlar, e'tiqod va ularning mohiyati, tarkib topishi.

Bilimlarni chuqur egallash va mustahkam o'zlashtirish. Yoshlarda ilmiy tarbiyaning dastlabki bosqichi. Bilimlarni yoshlarning e'tiqodi va ideallariga aylantirishning didaktik va tarbiyaviy shart-sharoitlari. *Mutafakkirlarning ilmiy dunyoqarash haqidagi fikrlari.*

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARINING MAVZULARI

"Pedagogika" fanining predmeti va o'rganish usullari

Ijtimoiy va oila tarbiyasining birligi.* Tarbiyaviy ish ta'sirchanligini oshirishda muhim omil.

Oila va jamoatchilikning tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish hamda takomillashtirish. Tarbiyada oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi.

Oila va maktab tarbiyasining maqsadi va mazmunining birligi. Ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish. Ota-onalarni o'quv maskanlaridagi tarbiyaviy ishlariga jalb etish.

Milliy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning asosiy vazifalari

"Milliy pedagogika" tushunchasi "Avesto", "Alpomish", "Manas" dostonlarida tarbiya masalalari.* Islomda ta'lim-tarbiya. Hadis ilmida ta'lim-tarbiya. Sufiylik ta'limoti. Markaziy Osiyoda XIV-XV asrlarda maktab, ta'lim-tarbiya.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari. Buxoro, Xeva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab. Fan va madaniyat. Rus-tuzem maktablari va matbuot. Turkistonda jadidchilik ma'rifati va ta'lim-tarbiya. Qaramlik va mustamlakachilik yillarida ta'lim-tarbiyadagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Qadimgi Yunoniston va Rimda ta'lim-tarbiya, maktab.

Aristotel, Sokrat, Platon, Kvintilianlarning pedagogik g'oyalari.

Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya. Konfutsiy ta'lim-tarbiya haqida.

Evropa mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida.* Ya. A. Komenskiy, Jan Jak Russo, K. D. Ushinskiy, I. G. Pestalotstsining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalari.

Didaktikaning fan sifatidagi taraqqiyoti

Ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini belgilovchi omillar.* Hozirgi davrda ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Ta'lim qonuniyatlari va o'qitish usullari

Ta'lim qonuniyatlari, tamoyillari. O'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga ko'chirish.* Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish usullari haqida.

O'qitishning vositalari (darslik va o'quv qo'llanmalari). Muammoli vaziyatlarni yaratish.*

O'quv jarayonini tashkil etish shakllari

Turli tipdagi maktablarda o'qitishni tashkil etishning mazmuni va maqsadi.

Oliy maktabda o'qitishning tashkiliy shakllari.* Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

Ta'lim va tarbiya usullarining aloqasi. Ta'lim-tarbiya usullarining samaradorligini oshirish yo'llari. Ta'lim va tarbiya jarayonini jadallashtirish mohiyati.*

Tarbiya jarayonining mohiyati va tarbiyaning umumiy shakllari, usullari va qoidalari

Tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ish.* Tarbiya va ta'lim jarayonining bir butunligi. Tarbiya shakllari.* Tarbiya usullarining xilma-xilligi. Tarbiya usullarini takomillashtirish.

Shaxsni shakllantirish omillari

Shaxsni rivojlantirish. Shaxsni tarkib toptirish tushunchasi. Shaxsning rivojlanishida biorganik, ijtimoiy omillarning roli.*

Ta'limda zamonaviy texnikalardan foydalanish

O'quv jarayoniga kompyuterlarning kirib kelishi. EHM ning takomillashuv bosqichlari. "Ta'lim berish texnologiyasi" tushunchasining talqini. Zamonaviy EHM va o'qitishning texnikaviy vositalarini markazlashtirilgan yo'nalishlarda samarali foydalanish.*

Pedagog va uning jamiyatda tutgan o'rni

Pedagog ta'lim jarayonning sub'ekti. Pedagogga qo'yiladigan talablar. Pedagog tanqidiylikka ko'ra yangilikni qabul qiluvchi va ommalashtiruvchi shaxs sifatida.*

Ta'lim-tarbiyada ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash

Ilg'or pedagogik tajribalarning zaruriyati va ularni sharoitga ko'ra tanlash.* Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llashni tashkil etish tamoyillari. Ta'lim-tarbiyada joriy va ilg'or pedagogik tajribalarni bir-biri bilan muvofiqlashirish muammolari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uning asosiy qonunlari

O'zbekistonda ta'lim tizimining tashkil topishi. Ta'lim tizimini isloh qilish. Ta'lim tizimining bosqichlari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'nalishlari.* Dastur va uning tarmoqlari. Dasturni amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar.

Ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-ruhiy xolatni sog'lomlashtirishning tarbiyaviy omili

Ishlab chiqarishdagi axloqiy-ruxiy holatning mazmuni va turlari. Jamoalarning ahloqiy-ruhiy holatlariga qarab bo'linishlari. Ishlab chiqarishdagi kayfiyat, jamoatchilik fikri, jamoa an'analari.* Mutaxassisning jamoadagi axloqiy-ruhiy holatga ta'sir etish texnologiyasi.

Mutaxassis xulqida axloqiylik va qonuniylik

Mutaxassis faoliyatida huquqiy normalarning axloqiy mohiyati. Huquq-axloqiy me'yor sifatida. Ishlab chiqarishda, muloqotda axloqiy me'yor hisoblangan normalarning o'ziga xos xususiyatlari.* Huquqiy me'yorlar, tamoyillar va qonunlarning inkor etishi

sharoitida axloqiy va kasbiy yo'qotishlar. Axloq va huquq o'rtasidagi nomutanosiblik va uni bartarf qilish yo'llari.

Tarbiyada maktab, oila, jamoatchilik va maxalla hamkorligi

Mahalla omilining yoshlar tarbiyasidagi rolining ortib borishi. Maktab, maxalla va oila birligi ifodalangan tarbiyaviy tadbirlar kompleksini ishlash usulikasi.* Sharqona tarbiya va uning umumjahon tarbiya tamoyillariga uyg'unlashib borishi.

Laboratoriya ishlari

Pedagogika fanining jamiyatdagi o'rni, uning nazariy-amaliy va prognostik vazifalari.

Pedagogika fani yutuqlarini tadbiq etish. Pedagogika fanlari tizimi.

O'rta asrlarda Sharq ma'rifatparvarlari ijodida pedagogik tafakkurning rivojlanishi.

Rahbarning pedagogik salohiyati.

Ijrochi axloqi.

Xalq pedagogikasi.

Pedagogik qobiliyatlar va faoliyat.

Barkamol avlod tarbiyasiga kompleks yondoshish.

Talabalarning individual rivojlanishi va uni ta'lim-tarbiyada hisobga olish.

4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR

Ko'rgazma-namoyish materiallar ro'yxati:

- Pedagogikaning ilm-fan, amaliyot bilan bog'liqligini namoyon qiluvchi sxematik plakat;
- Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari aks ettirilgan plakat;
- Ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi tamoyillar ko'rsatilgan ko'rgazmali plakat.

O'quv filmlari ro'yxati (internetdan olinadi):

1. e-mail: sales@piter-press.ru
2. e-mail: piter-t@lincom.kharko.ua
3. e-mail: root@top-book.nsk.su
4. e-mail: postbook@piter-press.ru

Didaktik materiallar ro'yhati; multmedik ilovalar.

Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Nazorat turlari:

joriy baholash uchun:

- seminar mashg'ulotlari savollariga yozma javoblar tayyorlash;
- og'zaki bahs-munozaralarda qatnashish;
- test variantlariga javoblar berish;
- referatlar yozish.

oraliq baholash uchun:

- ma'ruza darslariga qatnashish;
- ma'ruzalar mazmunini yozib borish;
- ma'ruza darslarida savol-javoblar bilan faol qatnashish.

yakuniy baholash uchun:

kafedrada tasdiqlangan fan varianti savollariga 1200 so'z miqdoridagi "yozma ish" ni bajarish yoki test savollari, variant savollariga og'zaki javob berish.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002.

12. Karimov I. A. Hayotimizning taraqqiyotimizning huquqiy asosi. Xalq so'zi. 2002 yil 6 dekabr.
13. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1997.
14. Mavlonova R., To'raeva J. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 2001.
15. Pedagogika (A.Munavvarovning umumiy tahriri) - T.: O'qituvchi, 1996.
16. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. -M.: 1999.
17. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Axlidinov R. Sh. Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poiski, resheniya.-T.: 1999.
2. Bepalko B. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. -M.: Pedagogika, 1999.
3. Vsemirnaya deklaratsiya o visshem obrazovanii dlya XXI veka: podxodi i prakticheskie meri. –Parij, 1998.
4. Yo'ldoshev J. G'. Pedagogika fani va O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish muammolari. – Xalq ta'limi, 1995. № 3-4, 1-12 b.
5. Pidkasiy P. I, Fridman L M, Gartskov M. G. Psixologo-didakticheskiy spravochnik prepodavatelya visshey shkoli. -M.: 1999.
6. Professionalnaya pedagogika: Uchebnik dlya sudentov, obuchayushchixsya po pedagogicheskim spetsialnostyam i napravleniyam. M.: Professionalnoe obrazovanie, 1997.
7. Psixologiya i pedagogika / Pod red. A.A. Radugina. -M.: Tsentr, 1999.
8. Psixologiya i pedagogika: uchebnoe posobie. / Pod red. V.M.Nikolae nko-MIFRA/-M.: Novosibirsk, 1999.
9. Raven Djon-mladshiy. Pedagogicheskoe testirovanie: problemi, zablujdeniya, perspektivi. Per. s angl. - M.: 1999.
10. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii - M.: 1998.
11. Slastenin V.A., L.S.Podmova, Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost. - M.: 1998.
12. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumabaeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.-T.: 2002.
13. Farberman B. L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.
14. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumabaeva. Sovremennie usuli prepodavaniya v vuzax. -T.: 2001.
15. Qurbonov Sh, Seytxalilov. Uzluksiz ta'limda kadrlar tayyorlashning milliy modeli. - T.: Sharq, 2000.